

Zamonaviy Ekologik Ta'limda Bolalarning Tabiatga, Jamiyatga Va O'z-O'ziga Nisbatan Mas'uliyatlari Munosabatlarini Shakllantirish Imkoniyatlari

Karamatova Dilfuza Sadinovna¹

Anatatsiya: Maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatlari munosabatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bugungi kunda bu boradagi mavjud muammolar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tabiat, jamiyat, inson, suv, havo, tuproq, tabiiy boylik, mahalliy xom-ashyo, o'simlik, ekologik ta'lif, ekologik tarbiya, tabiatga mas'uliyatlari munosabat, tabiatga daxldorlik hissi.

Bugungi kunda yosh avlodda tabiatga mas'uliyatlari munosabatni shakllantirish muammosining dolzarblii inson faoliyatini natijasida tabiat ifloslanishining xavotirlari bilan belgilanadi. Albatta, suv, havo va tuproqning musaffoligi to'liq inson faoliyatiga bog'liq. Tabiatga bo`lgan munosabatni o'zgartirish uchun bolalarda tabiatga nisbatan mas'uliyatlari munosabatni shakllantirish lozim. Bu esa, avvalo, ularda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishni taqozo qiladi.

Shu sababdan ham zamonaviy ekologik ta'lifda tabiatga mas'uliyatlari munosabatni shakllantirishga asosiy o'rinn beriladi. Bu maqsadli jarayon bo'lib, unda o'z qilmishi uchun nafaqat jamiyat, balki hayvonot olami oldida ham javob berishga tayyor bo'ladigan shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Aksariyat ekoglarning ta'kidlashicha, "Biz hech qachon daraxtlar, qushlar, o'tlar, qo'ng'izlar kabi oddiy ko'rindigan narsalardan sakrab o'tmaymiz. "Tabiatni muhofaza qilish" faqatgina tabiiy resurslar: suv, havo va tuproqlarni muhofaza qilish bilan bog'liq emas, balki biz yosh avlodga o'simlik va hayvonlar bilan muomala qilish madaniyatini o'rgatishimiz kerak. Shuningdek, o'quvchilarga "tabiatga qaytish"ni his qilishni o'rgatish orqali undan ajralmaslikni anglashga chaqiradi va bu ekologik tarbiya vazifalarining eng murakkab bo'lgan jihatlaridan biridir.

Boshlang'ich ta'lifda bola tabiat olamiga qanchalik tez qo'shilsa, uni kuzatish, his qilish va anglashni o'rgansa, unda shunchalik tez tabiiy boyliklarga ehtiyyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalari, dunyoni tirik va go'zal ko'rish bilan birga, ularni ifloslanish va vayronagarchilikdan himoya qilish zarurati tug'iladi.

Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsida o'ta muhim fazilatlar shakllanadigan, qobiliyat va ko'nikmalar faol rivojlanadigan asosiy bosqichdir. Bu davrda bolaning yangicha hayot tarziga, ya'ni o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishi kuzatiladi. Jumladan, kichik maktab yoshdagi bolalarda voqe'a-hodisalarga munosabat bildirish bilan birga ularni kuzatish va bajarish kerak bo'lgan bir qator huquq va majburiyatlarga ega bo'la boshlaydi. Shu sababdan ham tabiatda kuzatiladigan muammolarni nafaqat hal qilishlari, balki qiziqib bu jarayonda ishtirok etishlari mumkin.

Shu o'rinda rus pedagogi V.Suxomlinskiyning fikrini keltishmiz mumkin: "Bolani o'rab turgan olam, eng avvalo, hodisalarning cheksiz boyligiga, bitmas-tuganmas go'zallikka ega tabiat olamidir. Shu sababli ham tabiat bola onging rivojlanishiga cheksiz hissa qo'shadigan tabiiy omillardan biridir".

Kichik maktab yoshi tabiatga nisbatan hissiy-psixologik ta'sir va mas'uliyatlari munosabatni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lifda shakllangan tabiatga daxldorlik hissi, uning o'ziga xosligini chuqur his qilish qobiliyati shaxsning ekologik madaniyatining asosidir.

Tabiatshunoslik fani kichik maktab yoshdagi bolalarda tabiatga mas'uliyatlari munosabatni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Chunki u bolalarni o'z ona tabiatini bilan bevosita muloqotga jalb qiladi. Bugungi kunda noan'anaviy ta'lif shakli o'quvchilar bilan sayohatlar uyuştirib mahalliy aholining turmush tarzini o'rganishni, shuningdek, innovatsion ta'lif mazmuni esa ko'rgazmali quroq sifatida mahalliy xom-ashyo va o'simliklardan namunalar to'plab foydalishni taqozo qiladi.

D.S.Lixachevning ta'kidlashicha, tabiatshunoslik g'oyalari "tabiat, jamiyat va inson" munosabatlari borasidagi ilmiy bilimlarning shakllanishiga, yangilikni o'zlashtirish va tabiiy ne'matlarining musaffoligini saqlash yo'llari to'g'risida umumiy tushunchalar yotadi.

Shu nuqtai nazardan, Pedagogika fani va amaliyotida tabiatga mas'uliyatlari munosabatni shakllantirish masalasi doimo tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib kelgan. Jumladan, Tabiatshunoslik fani kichik maktab

¹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi kafedrasini o'qituvchisi

yoshdagi bolalarga tabiiy boyliklarimizning hissiy anglash va tabiatga nisbatan mas`uliyatli munosabatni ifodalashda erkinligini ta'minlaydigan vositadir. Jumladan, o'z yurti, ona Vatani va tabiatni bilan faxrlanish, zaminidagi tabiiy boyliklarga muhabbati bilan ifodalanadi.

Biroq bugungi kunda yosh avlodni tabiatga mas`uliyatli munosabatini shakllantirish bilan bog'liq masalalarda bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, ob'ektiv qiyinchiliklar va zarur pedagogik shart-sharoitlar aniqlanmaganligi sababli mazkur muammolar etarlicha hal qilinmaganligidan dalolat beradi. Masalan:

- kichik muktab yoshdagi bolalarda tabiatga mas`uliyatli munosabatni shakllantirish uchun ijtimoiy buyurtma mavjudligi va maktabning ushbu jarayonni amalga oshirishga ***ijtimoiy-pedagogik jihatdan*** etarlicha tayyor emasligi;
- kichik muktab yoshdagi bolalarda tabiatga mas`uliyatli munosabatni shakllantirishga aksilogik va ekologik yondashuvlarning ahamiyatini e'tirof etuvchi jarayon mazmunining kichik muktab yoshiga nisbatan ***ilmiy-uslubiy jihatdan*** nazariy asoslanmaganligi;
- kichik muktab yoshdagi bolalarda tabiatga mas`uliyatli munosabatni shakllantirishda Tabiatshunoslik fanining ta'lif salohiyatiga bo'lgan talab va maktab sharoyitida ushbu jarayonni amaliy tashkil etish hamda ***ilmiy-uslubiy jihatdan*** mazmunni boyitish uchun uslubiy ishlanmalarining etishmasligi.

Mazkur muammolar boshlang'ich ta'lif o'quvchilarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas`uliyatli munosabatlarni tizimli rivojlantirish masalasining dolzarbligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan ham bugungi kunda kichik muktab yoshdagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas`uliyatli munosabatlarni tizimli rivojlantirish masalasini pedagogik muammo sifatida o'rganish hamda uni ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash juda muhimdir.

Kopgina mahalliy pedagogik adabiyotlarda shaxsning tabiatga munosabati va ekologik ongiga alohida ahamiyat beriladi. "Tabiatga mas`uliyatli munosabat" deganda tabiatga mehnat ob'ekti va sub'ekti sifatida munosabatda bo'lish va uni muhofaza qilish bo'yicha jamiyatning huquqiy me'yorlari va axloq tamoyillariga mos keladigan faoliyat tushuniladi.

Tabiatga mas`uliyatli munosabatni shakllantirishning zaruriy sharti - bu ona zaminning qo'riqlanadigan hududlarini o'rganish bo'yicha zamonaliv ijtimoiy-madaniy sharoitlariga javob beradigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar, dasturlar isglab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'mida ta'kidlash joizki, yosh avlodni ona tabiatni asrab-avaylash, unga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lishga yo'naltirish, g'amxo'rlik va mas`uliyatni shakllantirish maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish ham ijobiy natijalar beradi.

Adabiyotlar:

1. Атфилд Р. Этика экологической ответственности // Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. - М.: Панорама, 1990. – 218 с.
2. Гусейнов А.А. Отношение к природе как нравственная проблема // Философские науки. - 1975. - № 5. - С. 27-32.
3. Дерябо С.Д. Экологическая педагогика и психология: учеб. пособие для студентов вузов. - Ростов-н/Д: «Феникс», 1996. – 480 с.
4. Захлебный А.Н. Этапы развития ответственного отношения школьников к природе // Отношение школьников к природе. - М.: Педагогика, 1998. - С. 86 – 118.
5. Игумнова Е.А. Воспитание экологической культуры младших подростков. - Хабаровск: Астрель, 1999. – 23 с.
6. Karamatova S.D. (2022). INTEGRATIVE APPROACH TO FORMING ECOLOGICAL CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
7. Karamatova D.S., Qilichova M.J. Pedagogning kasbiy kompetentligi va uni amaliyotda qo'llay olish mahorati // "Science and Innovation" INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. - Pp 764-768. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogning-kasbiy-kompetentligi-va-uni-amaliyotda-qolloy-olish-mahorati/viewer>
8. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B.950-955.
9. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B.956-962.
10. Karamatova D.S. Kichik muktab yoshidagi bolalarda tabiatga,jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarni tizimli rivojlantirish / International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science" Xalqaro konferensiyasi. - USA: NEW York university.

11. Karamatova D.S. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
12. Овчинникова А.Ж. Эстетическое отношение к действительности как фактор развития младших школьников. - М.: ACT, 1997. – 268 с.
13. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik mакtab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
14. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
15. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - C.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf
https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Mapt%202022.%20Том%204.pdf
16. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - B. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
17. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошлангич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлентириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 4, April 2022. ISSN 2181-2888. Pages 136-139. <https://zenodo.org/record/6511330#.Y1G0jnZByUk>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
18. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. - Australia, Melbourne. 2022. - B. 114-123. <https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:yMSYE6TfxoMJ:https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/download/294/515&cd=4&hl=ru&ct=clnk&gl=uz>
<https://zenodo.org/record/6762227#.Y1G7dXZByUk>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>
19. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>
20. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – Т.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 276-281.
21. Tursunova M.B. (2022). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI. *Science and innovation*, 1(B2), 149-151.
22. Hayitov A.I., Mirkholikova Ch., Niyozmetova N.B., Magdieva M. Theory of development of ecological culture of future primary class teachers based on an integrative approach. annals of forest research <https://www.e-afr.org/>. Ann. For. Res. 65(1): 2275-2282, 2022 ISSN: 18448135, 20652445. 2275-2282-betlar. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема / SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
23. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik mакtab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish / SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>